

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Dusiyarov Xusan Ravshan o'g'li

BMA magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonining institutsional va normativ-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy zarurati, davlat siyosati hamda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan tartibga solish mexanizmlari o'rganilgan. Xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari, bank xizmatlarini masofaviy shaklda ko'rsatish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya banklarning buxgalteriya hisobi va audit tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri, moliyaviy axborotning shakllanish mexanizmlari hamda nazorat jarayonlaridagi o'zgarishlar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalarida raqamli bank infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshirish va bank tizimida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan nazariy hamda amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, bank tizimi, buxgalteriya hisobi, audit, masofaviy bank xizmatlari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy hisobot, bank infratuzilmasi, Markaziy bank regulyatsiyasi, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy shaffoflik.

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya tasodifiy jarayon emas, balki davlat siyosati, Markaziy bank regulyatsiyasi va moliya bozoridagi tarkibiy islohotlar natijasida bosqichma-bosqich shakllangan institutsional jarayondir. Bu

jarayonni tushunish uchun uning normativ-huquqiy, tashkiliy va infratuzilmaviy asoslarini tizimli ravishda ko'rib chiqish zarur.

Shu sababli mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni imzolandi. Unga muvofiq, Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish belgilandi.

2022-yil 1-yanvar holatiga kelib, tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari to'liq yakunlangan bo'lib, bunda kredit mahsulotlarini masofaviy shaklda taqdim etish, bank omonatlarini joylashtirish hamda hisobvaraqlarni elektron tartibda ochish imkonini beruvchi ko'p funktsiyali onlayn bank xizmatlari tizimi joriy etilishi ta'minlanadi (cbu.uz).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish, jumladan mijozlarni masofadan identifikatsiyalash mexanizmlarini amaliyotga joriy etish asosida masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, yagona savdo platformasi doirasida bank xizmatlari bilan bir qatorda bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni, xususan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq

operatsiyalar, sug'urta mahsulotlari va boshqa moliyaviy vositalarni taklif etishga yo'naltirilgan moliyaviy supermarketlar biznes modelini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan masofaviy bank xizmatlari — internet-banking, bank–mijoz tizimlari, qisqa xabarlar orqali xizmat ko'rsatish hamda mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning qamrovi va funksional sifati izchil ravishda oshirilishi ta'minlanadi (cbu.uz).

4.1-jadval

“Hamkorbank” ATB mobil va internet banking foydalanuvchilari soni (2020–2024 yillar)

Yil	Mobil banking foydalanuvchilari (ming nafar)	Internet banking foydalanuvchilari (ming nafar)	Umumiy raqamli mijozlar soni (ming nafar)
2020	520	160	680
2021	870	230	1 100
2022	1 250	310	1 560
2023	1 900	380	2 280
2024	2 400	410	2 810

Manba: “Hamkorbank” ATB “Digital Transformation Strategy 2021–2025” hujjati, Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari davlat strategik hujjatlarida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va

hukumat tomonidan qabul qilingan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari bank sektorini modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasida bank tizimiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- *naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish;*
- *masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish;*
- *moliyaviy xizmatlarni avtomatlashtirish;*
- *ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish;*
- *moliyaviy shaffoflikni ta'minlash.*

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasida bank tizimiga yuklatilgan vazifalar mazkur tadqiqot mavzusi — ya'ni raqamli transformatsiya jarayonida bankning buxgalteriya hisobi va auditiga ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. Chunki yuqorida ko'rsatilgan har bir yo'nalish hisob va audit tizimining mazmuni, shakli hamda nazorat mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Birinchidan, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshirilishi bank operatsiyalari hajmining keskin ko'payishiga olib keladi. Bu esa buxgalteriya hisobida real vaqt rejimida operatsiyalarni aks ettirish, tranzaksiyalarni avtomatik tasniflash va ma'lumotlarni markazlashtirilgan bazada saqlashni talab etadi. Natijada, an'anaviy qo'lda yuritiladigan hisob tizimi o'rnini avtomatlashtirilgan axborot tizimi egallaydi. Audit nuqtai nazaridan esa operatsiyalar sonining ortishi tanlab tekshirish usulidan ko'ra to'liq ma'lumotlar bazasini tahlil qilishga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Ikkinchidan, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish buxgalteriya hisobi tizimida yangi turdagi operatsiyalarni (mobil to'lovlar, onlayn kreditlash, raqamli

omonatlar va boshqalar) hisobga olish metodologiyasini takomillashtirishni zaruratga aylantiradi. Masofaviy xizmatlarda inson omili kamaygani sababli nazorat jarayoni algoritmlar asosida ishlaydi. Bu audit jarayonida elektron dalillar, tizim loglari va raqamli izlarni asosiy tekshiruv ob'ektiga aylantiradi.

Uchinchi, moliyaviy xizmatlarni avtomatlashtirish bank buxgalteriya hisobining funksional rolini o'zgartiradi. Endilikda hisob faqat operatsiyalarni qayd etish emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tezkor va aniq axborot ishlab chiqaruvchi tizimga aylanadi. Bu holatda audit jarayoni ham an'anaviy post-faktum tekshiruvdan uzluksiz monitoring modeliga o'tadi. Ya'ni nazorat jarayoni operatsiya sodir bo'lishi bilan bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

To'rtinchi, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish bank, Markaziy bank va boshqa moliyaviy institutlar o'rtasida integratsiyalashgan axborot muhitini shakllantiradi. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi tizimi yagona standartlarga mos ishlashi zarur bo'ladi. Audit esa ma'lumotlar mosligi, to'liqligi va o'zaro integratsiya darajasini baholashga qaratiladi.

4.2-jadval

O'zbekiston bank sektorida raqamli ko'rsatkichlar dinamikasi (2015–2024)

Yil	Mobil banking foydalanuvchilari (%)	Naqd to'lovlar pulsiz hajmi (mlrd so'm)	Onlayn kredit ulushi (%)	IT-investitsiyalar ulushi (%)
2015	4.5	12,500	1.2	0.8
2018	12.8	45,700	3.9	1.5
2020	25.6	92,000	6.5	2.3
2022	41.2	180,300	10.1	3.6
2024	58.7	325,800	17.4	4.9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 maydagi “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-son Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini 2020–2025-yillarda rivojlantirish va transformatsiya qilish strategiyasi bank sektorini tubdan modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. Strategiyada banklar faoliyatini avtomatlashtirish, raqamli banking tamoyillariga asoslangan biznes-modellarni joriy etish hamda mobil xizmatlarni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur o‘zgarishlar bevosita bank buxgalteriya hisobi tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bank operatsiyalarining asosiy qismi masofaviy va elektron shaklga o‘tayotgan sharoitda hisob registrlari ham avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida shakllanmoqda. Ilovada banklar faoliyatini avtomatlashtirish va samarali infratuzilma yaratish orqali tizim samaradorligini oshirish vazifasi aniq belgilangan.

Raqamli transformatsiya sharoitida bank buxgalteriya hisobi quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, operatsiyalar real vaqt rejimida qayd etiladi. Masofaviy xizmatlarni keng joriy etish, ayniqsa aholi va kichik biznes uchun, moliyaviy operatsiyalar hajmini sezilarli oshirmoqda. Bu esa hisob tizimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlashni talab qiladi.

Ikkinchidan, hisobotlarni shakllantirish jarayonida axborot texnologiyalarining roli kengaymoqda. Natijada moliyaviy hisobotlar avtomatik generatsiya qilinadi va inson omili bilan bog'liq xatoliklar kamayadi.

Uchinchidan, bank tizimida davlat ulushi yuqoriligi va transformatsiya jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi hisob siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki yangi boshqaruv mexanizmlari va shaffoflik talablari moliyaviy axborotning ochiqligini oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni avvalo mustahkam normativ-huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bevosita bank buxgalteriya hisobi va audit tizimining transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki har qanday texnologik yangilanish, agar u huquqiy jihatdan tartibga solinmagan bo'lsa, amaliyotda barqaror natija bermaydi.

Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasining "Tolovlar va to'lov tizimlari tug'risida"gi yangi tartibda Qonuni imzolandi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi natijasida banklarda amalga oshiriladigan to'lov operatsiyalarining mazmuni, ularning bajarilish tartibi hamda yakuniyligi aniq belgilab berildi. Bu holat buxgalteriya hisobida xo'jalik operatsiyalarini tan olish va qayd etishda noaniqliklarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Qonunda to'lovning yakunlanganligi aniq mezonlar asosida belgilangan bo'lib, bu bank buxgalteriyasida moliyaviy majburiyatlarning qachon tugashi va aktivlarning qachon e'tirof etilishi masalasiga aniqlik kiritadi. Xususan, pul mablag'lari benefitsiar hisobvarag'iga o'tkazilgan paytdan boshlab to'lov yakunlangan deb e'tirof etilishi buxgalteriya hisobida operatsiyalarni o'z vaqtida va haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Natijada bank balansida

majburiyatlarning asossiz saqlanib qolishi yoki kechiktirib hisobdan chiqarilishi xavfi bartaraf etiladi

Mazkur Qonunning muhim afzalliklaridan yana biri to'lov tizimlari, kliring va hisob-kitob mexanizmlarining huquqiy tartibga solinganligidir. Bank buxgalteriyasida kliring jarayonlarining normativ jihatdan belgilanishi operatsiyalarni balans va balansdan tashqari hisoblarda to'g'ri aks ettirishga xizmat qiladi. Bu esa bankning moliyaviy holatini baholashda vaqtinchalik talab va majburiyatlarning noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi.

Qonunda elektron pullar va elektron to'lov vositalarining huquqiy maqomi belgilab berilgani bank buxgalteriyasi uchun alohida ahamiyatga ega. Elektron pullar bankning shartsiz majburiyati sifatida e'tirof etilishi ularni alohida analitik hisobda yuritish imkonini yaratadi. Natijada bank moliyaviy hisobotida mijozlar oldidagi majburiyatlar to'liq va ishonchli aks ettiriladi, bu esa moliyaviy hisobotning shaffofligini oshiradi

Shuningdek, Qonunda operatsiya kuni tushunchasining aniq belgilanishi bank buxgalteriya hisobida hisobga olish davrlarini qat'iy chegaralash imkonini beradi. Bu holat daromad va xarajatlarning noto'g'ri hisobot davriga o'tkazilishining oldini olib, bankning moliyaviy natijalari aniqligini ta'minlaydi. Ayniqsa, real vaqt rejimida amalga oshiriladigan to'lovlar sharoitida buxgalteriya hisobining uzluksizligi va aniqligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun bank buxgalteriya hisobiga huquqiy aniqlik, operatsion shaffoflik va metodologik barqarorlik olib kiradi. Ushbu Qonun asosida yuritilgan buxgalteriya hisobi bank

moliyaviy hisobotining haqqoniyligi va ishonchliligini oshiradi hamda bank faoliyatini audit qilish uchun mustahkam normativ poydevor yaratadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023 yil 8 fevraldagi "Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi 3420-sonli yuriqnoma ishlab chiqildi.

Mazkur yuriqnoma muvofiq, banklarda hisobvaraqlarni ochish, yuritish va yopish tartibini belgilash orqali, amalda bank buxgalteriya hisobi tizimining eng muhim "kirish nuqtasi" — mijoz bilan hisob-kitoblar bo'yicha hisob registrarlari, hujjatlashtirish, ichki nazorat va ma'lumotlar bazalari qanday ishlashini tartibga soladi. Buxgalteriya nuqtai nazaridan bu hujjatning markaziy mazmuni shundan iboratki, har bir hisobvaraqlar bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida ochiladi va bankning majburiyatlari hamda mijozning mablag'lari bilan bog'liq barcha operatsiyalar bu hisobvaraqlar orqali rasmiylashtiriladi. Ya'ni bankning buxgalteriya tizimida mijozga tegishli pul oqimlari "hisobvaraqlar" degan obyekt orqali identifikatsiya qilinadi, nazorat qilinadi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga olib chiqiladi.

Yo'riqnoma hisobvaraqlar turlari (talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli depozit, metall, eskrou, vakillik va boshqalar) aniq ajratib berilgani bank buxgalteriyasida majburiyatlar tarkibini to'g'ri tasniflash uchun metodik asos yaratadi. Chunki talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi qoldiq, muddatli depozitdagi qoldiq yoki eskrou hisobvaraqlaridagi mablag'lar iqtisodiy mazmuniga ko'ra turlicha bo'lib, ularni bir xil ko'rinishda yuritish noto'g'ri hisobga va noto'g'ri taqdim etilgan hisobotga olib kelishi mumkin. Shu sabab, bu Yo'riqnoma

bankning hisob siyosatida hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini (kirim-chiqim, hisobdan chiqarish, qoldiqni aniqlash, shartnomaviy shartlar) standartlashtirishga xizmat qiladi.

Hujjatda “asosiy hisobvaraq” tushunchasi alohida belgilangan: xo'jalik yurituvchi subyekt davlat ro'yxatidan o'tgach milliy valyutada birinchi marta ochgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i asosiy hisobvaraq hisoblanadi, keyingi ochilgan talab qilib olinguncha hisobvaraqlar ikkilamchi hisobvaraqlar sifatida yuritiladi. Buxgalteriya hisobi uchun bu ajratish muhim, chunki bankning ichki tizimlarida mijozning asosiy hisobvarag'i ko'pincha “asosiy xizmat ko'rsatish” kanali bo'lib, turli cheklovlar, hisobdan chiqarishni vaqtincha to'xtatib turish kabi amallar aynan shu “markaziy” hisobvaraq orqali boshqariladi. Bu, o'z navbatida, buxgalteriya nazorati va hisob registrlarining yaxlitligini ta'minlaydi: mijozning turli banklardagi hisobvaraqlari haqidagi ma'lumotlar markazlashgan tartibda olinishi va muvofiqlashtirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-apreldagi “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6079-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son .

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etish to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlar to‘plami. Toshkent.

7. Nikolaev V. A., 5.Seleznev V. M. Blokcheyn i sifrovoe budуще. Obezaniya novoy texnologii protiv realnosti // Audit. 2019. № 2. S. 38–42. 3.

8. 6.Drujilovskaya T. Yu., Drujilovskaya E. S. Modernizatsiya finansovoy otchetnosti organizatsiy v usloviyax sifrovoy ekonomiki // Uchet. Analiz. Audit. 2019. № 6 (1). S. 50–61

9. International Financial Reporting Standards Foundation. IFRS 9 Financial Instruments.

10. IFAC. International Standards on Auditing (ISA 315, ISA 330).

11. SAP SE. Annual Report and Digital Finance Transformation Materials.

12. cbu.uz.

13. lex.uz.

14. hamkorbank.uz.

15. norma.uz.

16. fido-biznes.uz.